

"Shirin dasturxon" to'garagi

Kimki pazanda, demak arzanda. Bu naql bejiz aytilmagan. 2018 - yil 23-noyabr kuni TTJ-3 tarbiyachi pedagogi Xaitova Aziza va QXM fakulteti xotin-qizlar raisi Xoliqova Nargiza tomonlaridan tashkillashtirilgan "Shirin dasturxon" to'garagi o'z ish faoliyatini boshladi.

Shu munosabat bilan talaba qizlarni bosh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida fakultetlar o'rtaida "Chuchvara tugish" musobaqasi o'tkazildi. Musobaqaqada qizlarimiz o'zlarini pazandalik mahoratlarini ishga solib, sovrinli o'rinalar olish uchun harakat qilishdi. Hakamlar hay'ati azolari GM dekani orinbosari Muqimov Bayramali, 3-TTJ tarbiyachi pedagogi Xaitova Aziza, GM fakulteti dekani o'rindbosari Rahimov Nurbeklar tomonidan talaba qizlar mahoratlarini bir ovozdan odilona baholashdi.

Faxrli 3-o'rinni EF va Ek fakulteti talabasi Jo'rayeva Anora hamda SXTE va B fakulteti talabasi Alimardonova Nozigul, 2-o'rinni, GM fakulteti talabasi Mahkamova Mashhura egallagan bo'lsa, oliy o'rin QXM fakulteti talabasi Aknazarova Umidaga nasib etdi. Tadbirda faol ishtirok etib, sovrinli o'rinalarni olgan talaba qizlarimiz xotin-qizlar qo'mitasi Zulfiya Xafizova tomonidan qimmatbaho sovg`alar bilan taqdirlandi.



3 -TTJ tarbiyachi pedagogi Xaitova Aziza axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov